



BIZNING SAYYORA VA OY

BMTI akademik litseyi fizika-astronomiya fani o'qituvchilari

Jabbofova D.Q. va Sharipova N.U.

Kalit so'zlar: Yer, Oy, Sayyoralar, Troposfera, Stratosfera, Mezosfera, ionosfera, Ekzosfera, Lunaxod, Qutb yog'dulari, kraterlar, magnit maydon.

Annotatsiya: Maqolada Yer haqidagi ma'lumotlar, Yerning tuzilishi, Yerning ichki va tashqi qobig'i, Yerdagi jaroyonlar, Oyga sayohat, Oy haqidagi ma'lumotlar, Oy tuzilishi, Oyni o'rghanish haqidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Ключевые слова: Земля, Луна, Планеты, Тропосфера, Стратосфера, Мезосфера, Ионосфера, Экзосфера, Лунаход, Полярные осадки, кратеры, магнитное поле.

Аннотация: В статье представлены сведения о Земле, строении Земли, внутренней и внешней коре Земли, течениях на Земле, путешествиях на Луну, сведения о Луне, строении Луны, сведения об изучении Луны.

Key words: Earth, Moon, Planets, Troposphere, Stratosphere, Mesosphere, Ionosphere, Exosphere, Lunakhod, Polar precipitation, craters, magnetic field.

Abstract: The article covers information about the Earth, structure of the Earth, inner and outer crust of the Earth, currents on the Earth, travel to the Moon, information about the Moon, structure of the Moon, information about studying the Moon.

Yer – Yer guruhidagi planetalarining eng kattasi bo'lib, tartibi bo'yicha Quyoshdan uchinchi o'rinda turadi, uning diametri ekvatori bo'yicha 12756 km, massasi $5,976 \cdot 10^{24}$ kg o'rtacha zichligi $5,517 \text{ g/sm}^3$ ga, hajmi $1,084 \cdot 10^{12} \text{ km}^3$ teng. Uning Quyoshdan uzoqligi 150 mln.km., siderik aylanish davri 23 soat 56 minut 04 sekund, sinodik aylanish davri 24 soat, orbitasining ekliptikaga qiyaligi nolga teng va



ekvatorining orbita tekisligiga og`maligi $23^{\circ}27'$ burchak ostida harakatlanadi. Quyosh atrofida siderik aylanish davri $365^{\circ}06^{\text{h}}09^{\text{m}}10^{\text{s}}$ bo`lib, tezligi 29,79 km/s. Yerning tabiiy yo`ldoshi Oy bilan birgalikda Quyosh sistemasidagi yagona qo`shaloq planeta deyish mumkin. Chunki Oyning o'lchamlari Yernikiga nisbatan juda ham kichik bo`lmasidan u boshqa planetalarning yo`ldoshlari kategoriyasidagi yo`ldosh emas. Masalan, Veneradan turib qaralganda Yer bilan Oy orasidagi masofa 0,5 gradusdan oshmasdan ko`rinadigan qo`shaloq yulduz kabi ravshan ko`rinadi. Yer sirtining o`rtacha harorati 22°C va yadrosida 6200°C .

1. *Yerning ichki tuzilishi.* Yerning kosmik apparatlardan turib olingan fotosurati uning sharsimon osmon jismi ekanligini ko`rsatdi. Yerning ichki tuzilishi asosan uchga bo`linadi: qobig`i, mantiya qismi va yadrosi. Yerning qobig`i unchalik qalin emas: 10 km dan (okean tubida) 80 km gacha (tog` cho`qqilar ostida).

Qobiqni tashkil etgan moddalar kristall holatda bo`lib, ustki qismi granit moddalardan va ostki qismi esa bazal`t moddalardan tashkil topgan. Yer qobig`i gidrosfera va litosferadan iborat. Quyosh sistemasining birorta boshqa planetasida gidrosfera qatlami mavjud emas. Chunki suvning suyuq holatda bo`lishi uchun ma'lum sharoitdagi temperatura va bosim kerak bo`ladi. Yerning litosfera qatlami Yer sirtidan 0-300 km gacha masofani tashkil qiladi.

Yer qobig`i, o`zidan ichki qatlam mantiyadan Moxorovichich sirti orqali ajralib turadi. Moxorovichich yugoslaviyalik olim bo`lib, Yer qobig`ining ana shu sirtida tarqalayotgan seysmik to`lqinlar birdan ortib ketishini kuzatgan.

Yerning mantiya qismi 300-2900 km gacha bo`lgan Yerning ichki qatlamini tashkil qiladi. Bu qatlamda moddalar qattiq va amorf (plastiklik xususiyatiga ega bo`lgan) holatda uchraydi. Mantiyani yadrodan ajratib turadigan qismda seysmik to`lqinlar pastlab ketishi aniqlangan. Masalan, bo`ylama to`lqinlar 13,6 dan 8,1 km/s gacha kamayadi. Kundalik to`lqinlar esa yadro qismiga o`tmaydi. Bu yadroda modda qanchalik zinch bo`lmasin, ammo suyuq jism ekanligini bildiradi.

Yerning yadro qismi ikki zonaga bo'linadi: tashqi yadro 2900-5000 km gacha va ichki yadro 5000-6370 km gacha.

2. *Yer atmosferasi*. Yerni qurshab olgan atmosfera –gaz qobiq 77% azot, 21% kislorod va nihoyatda kam miqdordagi boshqa gazlardan iborat.

Yer atmosferasi asosan beshta qatlamdan iborat: 1.Troposfera; 2. Stratosfera; 3.Mezosfera; 4.Termo yoki ionosfera; 5.Ekzosfera;

Troposfera – Yerning sirtiga yaqin joylashgan atmosferaning bir qismi bo'lib, u Yerning ekvatorida 18 km va Yerning qutbida 9 km gacha bo'lган balandlikni o'z ichiga oladi. Troposfera atmosferaning 80% massasini tashkil qiladi. Suv bug'i hammasi troposferada joylashib, ob-havoning o'zgarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadi. Troposferaning har 100 m balandligida temperatura 0,6 darajaga pasayib boradi va uning sirtki qismida temperatura -60⁰ C gacha etadi.

Stratosfera – troposferaning ustki chegarasidan boshlanib, Yer sirtidan 60 km gacha bo'lган zonani egallaydi. Stratosferada atmosferaning 20 % massasi joylashgandir. Stratosferada temperatura deyarli o'zgarmas bo'lib, o'rtacha -40⁰ C ni tashkil qiladi. Yer sirtidan 25 km balandlikdan boshlab, Yer atmosferasining temperaturasi Quyoshning ul'trabinafsha nurlanishini yutishi sababli asta sekin ko'tarila boradi. Bu qatlam mezosfera deyiladi.

Termosfera yoki ionosfera – Yer sirtidan 90 km baladlikdan boshlanib, 800 km gacha bo'lган zonadir. Bu zonaning temperaturasi +1000⁰ C gacha boradi va umumiy atmosferaning 0,05 foiz massasini tashkil qiladi. Ionosferada Quyoshning nurlanishi, Yer atmosferasining yuqori qatlamlarida kuchli ionlashishni hosil qilgani uchun temperatura ortib ketadi.

Ekzosfera – ionosferadan yuqori qatlam bo'lib, u atmosferaning yuqori chegarasidan taxminan 3000-4000 km gacha cho'zilgan. Bu zonada gaz molekulalari orasidagi masofa va tezligi katta. Shuning evaziga ayrim molekulalar Yerning ta'sir

sferasidan tashqariga chiqib ketadi. Atmosfera Quyoshdan Yerga tushayotgan energiyaning 38 foizini yutib qoladi.

Yerning magnit maydoni yetarli darajada kuchli (taxminan $5 \cdot 10^5$ Tl). Yerdan uzoqlashgan sari uning magnit maydoni indukstiyasi kamayib boradi. Yerga yaqin fazoni kosmik apparatlar yordamida kuzatish, bizning planetamiz tez harakatlanuvchi zaryadlangan elementar zarralardan iborat bo'lgan quvvatli radiastion poyas bilan o'ralganligini ko'rsatdi. Poyasning ichki qismi Yer sirtidan taxminan 500-5000 km gacha cho'ziladi. Radiatsion poyasning tashqi qismi 1-5 Yer radiusiga teng balandliklar orasida joylashgan. Energiyasi o'n minglab eVdan iborat.

Quyosh chaqnashlaridan yuzaga kelgan magnit zarralarning oqimi 400-1000 km/s tezlik bilan Yer tomonga kelib, Yerning magnit maydonini to'lqinlantiradi. Ionosferada radioaloqani buzadigan to'lqinlanishi vujudga kelib, qutb yog`dulari kuzatiladi. Har xil shakldagi va rangdagi qutb yog`dulari 80 dan 1000 km gacha balandlikda sodir bo'ladi. Ularning paydo bo'lishi quyidagicha kechadi: qutblardagi zarralar magnit maydonining induksiya chiziqlari bo'ylab harakatlanib, atmosferaga kiradi. Bu Yerda induksiya chiziqlari Yer satxiga deyarli tik yo'nalgan Zarralar havo molekulalarini bombardimon qilib, ularni ionlashtiradi va nurlanishni vujudga keltiradi. Qutb yog`dularidagi turli xil ranglar, atmosferadagi gazlarning turlicha nurlanishining oqibatidir.

Oy Yerning yakkayu yagona tabiiy yo'ldoshi bo'lib hisoblanadi.

Oyning Yerdan o'rtacha uzoqligi 384000 km (min. 356000 km., maks. 407000 km). Oy Yerga yaqin bo'lganligi sababli u bizga Quyosh kattaligida bo'lib ko'rindi. Yerdan o'rtacha uzoqligi 384000 km (min. 356000 km, maks. 407000 km). Oyning diametri 3476 km, ya'ni Yerdan to'rt marta, massasi jixatidan 81 marta kichik ($7,35 \cdot 10^{22}$ kg). Uning o'rtacha zichligi $3,35 \cdot 10^3$ kg/m³. Oyning yuzi Yer yuzining $\frac{1}{13}$ qismiga, hajmi esa Yer hajmining $\frac{1}{49}$ qismiga teng. Oyning siderik aylanish davri

27°07'43''^m12''^s va sinodik aylanish davri 29°12'44''^m03''^s ga teng. Oyning orbital tezligi 1 km/s. Oyda atmosfera yo'q. Shuning uchun soyalar keskin chegaralangan va tim qora. Oy sirtidagi tortish kuchi, Yer sirtidagi og`irlilikning $\frac{1}{6}$ qismiga teng. Yerdagi jismlar

Oyda Yerdagiga nisbatan (prujinali torozida tortganda) 6 marta yengil bo'ladi. Oy sirtiga tushadigan meteoritlarning uzlusiz kelib urilishlari, Oy sirtini mayda parchalar va changlarga aylantiradi. Oy qobig`ining bunday tuzilishi undan issiqlik kam o'tishini ta'minlaydi. Oy sirtida temperatura +120°C gacha isishi va -170°C gacha sovishi mumkin. Oy sirtidagi temperaturaning kundan tunga o'tganda keskin o'zgarishi sababli, Oyda kun va tun uzoq vaqt davom etib, har biri bizning ikki haftamizga to'g'ri keladi.

Oyning atmosferasi bo'limganligi uchun uning sirti oddiy ko'zda ham sezilarli darajada ko'rindi. Ammo 17-asrning boshida G.Galiley 32 marta kattalashtirib ko'rsatadigan teleskop kashf qilgandan so'ng Oyning tashqi tuzilishining kartasi tuzila boshlandi. Oy sirtidagi qora dog`lar "dengizlar" deb ataldi. Aslida bular past tekisliklar bo'lib, ularda bir tomchi ham suv yo'q. Ularning tublari qora va deyarli tekisdir. Oyda bir necha tog` tizmalari bo'lib, ularga Yerdagi kabi Alp, Kavkaz va hokazo nomlar berilgan. Tog`larning balandligi 9 km gacha yetadi. Oyning tashqi tuzilishi asosan kraterlardan iborat. Kraterlarga olimlarning nomlari berilgan: Tixo, Kopernik, Ulug`bek va hokazo. Oyda kraterlar ko'pligidan Tixo (diametri 60 km) krateridan radial yo'naliishda nurlar tarqalib turadi. Yerdagi eng katta kraterlarning diametri odatda bir necha kilometrdan oshmaydi, Oyda esa diametri 100-200 km gacha etadigan ko'p kraterlar mavjud. Oydagi eng katta krater ichiga Belgiyadek butun bir mamlakat joylashishi mumkin.

Yerdan qaraganda Oyning bitta yarim shari ko'rinishini bilamiz. 1959 yilda Oyning yaqinidan uchib o'tgan sovet kosmik stanstiyasi birinchi marta, uning Yerdan ko'rinxaydigan yarim sharini fotosuratga olgan.

Hozirda Oyning yaqindan turib olingan juda ko'p fotosuratlariga asoslangan mukammal kartalari tuzilgan. Apparatlar bir necha marta Oy sirtiga ham qo'ndirilgan. 1969 yilda Oy sirtiga birinchi marta ikkita amerikalik astronaut kosmik apparatlarda qo'ndilar. Astronautlar Oy sirtida maxsus vezdexodda sayoxat ham qildilar. Oy sirtida ular "oy qimirlashi"ni qayd qiladigan seysmograflarni o'rnatdilar. Sovet olimlari Oy jinslaridan, tuprog`idan namunalar olib, Yerga qaytdilar.

Oy moddalarining namunalari ustida o'tkazilgan kimiyoviy analizlar Oy jismlari Yerdagidek turli-tuman emasligini va tarkibi bazal't tarkibiga o'xshashligini ko'rsatdi. Oy sirtiga Yerda ko'pgina ilmiy o'lchamlar va tuproqlar ustida analizlar o'tkazgan o'zi yuradigan sovet avtomatik laboratoriyalari – lunaxodlar yuborilgan.

Sovet kosmik stanstiyalari Oyning magnit maydoni va radiastion poyaslari yo'qligini isbotladi. Chunki, Oyning yadrosi qattiq jism ekan. Agar Yerning yadrosidek suyuq jism bo'lganda, albatta magnit maydoni bo'lar edi.

Oyning tashqi tuzilishi, kelib chiqishini o'rganish qiziqliki, Oy o'z sirtida qadimiy geologik hodisalarining nishonalarini saqlab qolgan, chunki suv va shamol yo'qligidan Oy qobig`i yemirilmaydi.

1958 yilda Sovet astronomi N.A.Kozirev Al'fons kraterida Oy bag`ridan gazlar chiqayotganini payqadi. Oy sirtidan olib kelingan jinslar tarkibini o'rganish ularning yoshi kamida 2 mlrd yildan kam emasligini ko'rsatdi.

Foydalilanigan adabiyotlar

1. Yosh fizik ensiklopedik lug'ati. Toshkent-1989.
2. Umumiy astronomiya. Mamadazimov M. Toshkent-2004.
3. Mexanik va molekulyar fizika M.X.O`lmasova, Toshkent – 2003.
4. Astronomiya, M.Mamadazimov, "O'qituvchi" Toshkent-2014